

**JANUBI-G'ARBIY O'ZBEK SHEVALARIDA DIALEKTAL
FRAZELOGIZMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

O'razboyev Olimjon Rustam o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat

universiteti magistranti

***Annotatsiya:** O'zbek tilshunosligida, jumladan, o'zbek shevashunosligida dialektal frazeologizmlar kam o'rganilgan mavzu bo'lib, o'zining tadqiqotchisini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Aynan shu sababli biz maqolada shu jihatlarga urg'u berdik.*

***Kalit so'zlar:** ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik, pessimistik fikr-mulohazalar, sheva, dialekt, uslubiyat, frazeologiya.*

***Abstract:** In Uzbek linguistics, including Uzbek dialectology, dialectal phraseology is an understudied topic and is one of the urgent problems awaiting its researcher. That is why we emphasized these aspects in the article.*

***Key words:** expressive-emotional coloring, pessimistic opinions, dialect, dialect, methodology, phraseology*

***Аннотация:** В узбекском языкознании, в том числе и в узбекской диалектологии, диалектная фразеология является малоизученной темой и представляет собой одну из актуальных проблем, ждущих своего исследователя. Именно поэтому в статье мы акцентировали внимание на этих аспектах.*

***Ключевые слова:** экспрессивно-эмоциональная окраска, пессимистические суждения, диалект, говор, методология, фразеология.*

Til jamiyat taraqqiyotini rivoj toptiruvchi asosiy kuchdir. Insonning o'zligini anglashi, unda milliy g'urur, iftixor kabi oliy tuyg'ularning qaror topishida tilning o'rni nihoyatda beqiyos. Prezidentimizning Sh.M.Mirziyoyev "Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri,

intelektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir"¹ deb ta'kidlaganidek, o'zbek millatining nafaqat jamiyatdagi o'z mavqeini belgilashga, balki eng rivojlangan xalqlar qatoridan munosib o'rin egallashga bo'lgan da'vat hamdir. Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo'ldi.

Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi²

Yurtimiz o'zining milliy mustaqilligiga erishgach, o'zbek tili Davlat tili maqomini oldi. Shundan keyin o'zbek tilining mahalliy shevalarini o'rganish, ayniqsa, turli arealdagi shevalarni, ular tarkibidagi etnografik leksikani jiddiy o'rganishga ehtiyoj kuchaydi. Jahon tilshunosligida xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odat va an'analari milliy-madaniy o'ziga xosligidagi umumiy va farqli jihatlarini frazemalar asosida o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Frazemalar har qanday til lug'at tarkibining eng boy qatlami bo'lib, nutqqa obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlik baxsh etishi bilan ajralib turadi. Ular tarkibidagi obrazlar tizimi millat dunyoqarashining shakllanishi bilan bog'liq bo'lganligi bois, ular shu millatning milliy-madaniy xususiyatlari, an'analari, milliy mentaliteti haqida ma'lumot berganligi uchun ham katta ahamiyatga egadir.

O'zbek tilshunosligida, jumladan, o'zbek shevashunosligida dialektal frazeologizmlar kam o'rganilgan mavzu bo'lib, o'zining tadqiqotchisini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. O'zbek frazeologiyasining nazariy masalalarini tadqiq qilgan olimlarimizni yuqorida takidlab o'tdik. Asrlar osha o'tib kelayotgan mahalliy xalq shevalardagi frazeologizmlar juda qadim davrdan

¹. <https://lex.uz/docs/4561730/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yl 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida Farmoni.

². Xudayarova M. O'zbektilidagi taom nomlari (Qoraqalpog'iston hududi materiallar asosida). – Toshkent. Noshirlik yog'dusi, 2020. 3-bet.

beri qo‘llanilib, tarkibi jihatdan mustahkam, ma‘no jihatdan o‘tkir hisoblanadi. Bunday qoliplashgan turg‘un so‘z birikmasini til tarkibidan chiqarmasdan, xalq avloddan-avlodga yetkazib keldi.

Frazeologik iboralar so‘zlovchining biror narsa-hodisa yoki predmet, inson haqidagi yo ijobiy, yo salbiy bahosini, ekspressiv xususiyatlarini hamda ularga bo‘lgan emotsional munosabatlarini ifodalaydi. Tildagi ko‘pgina frazemalar iboralar uchun ekspressiv-emotsional bo‘yoqdorlik ajralmas xususiyat hisoblanadi, shu bilan birga iboralarning asosiy qismi uslubiy jihatdan neytraldir. Chunki ibora yordamida u yoki bu predmet, hodisa nomlanibgina qolmasdan, o‘sha predmet yoki hodisaga, shaxsga so‘zlovchining ekspressiv munosabati ham ifodalanadi. Masalan, xalq orasida xursandchilikni “*og‘zi qulog‘ina yetdi*”, “*dishining oqini go‘rsatdi*” iboralari bilan ifodalash mumkin. Bu iboralarning biri ijobiy baho ottenkasini bildirsa, keyingisi ba‘zan salbiy ma‘no nozikligini ifodalaydi³.

Umuman olganda, iboraning ma‘no tuzilishi so‘zlikiga nisbatan ancha murakkab, chunki iboradagi ma‘no munosabatlari bilan uning component tarkibi o‘rtasida kata uzilish, muvofiqlik mavud. Bu holat hatto X.Kasaresdek mashhur leksikolog olimni ham o‘z vaqtida quyidagidek pessimistik fikr-mulohazalarini bayon etishga undagan edi. “Modizmlar (frazemalar) ma‘nosini ko‘p hollarda aniq belgilab bo‘lmaydi, bu ma‘noni uning ichki mohiyatini izohlashga intilmasdan, qanday bo‘lsa shundayligicha tushunilish lozim”⁴.

Frazemalar so‘zlardan farqli ravishda reallikdagi muayyan voqea-hodisani faqat ifodalash, nomlash uchun emas, shu bilanbirga, unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi iboralarning asosiy qismi semantik jihatdan insonga, uning birorhatti-harakatini izohlashga qaratilgan: ular insonning fizik, psixologik, ahloqiy-etik, intellektual xususiyatlarini baholaydi, insonning ijtimoiy holatini kasbini, yoshini, hayotiy tajribasini, qarindoshlik aloqalarini harakterlaydi. Shuningdek, voqea va

³. Bekmurod Yuldoshev. Frazeologik uslubiyat asoslari. SamDU nashri. Samarqand. 1998.B:80

⁴. Касарес Х. Введение в современную лексикографию - М. 1958. Б: 354.

hodisalarni ifodalovchi ko'pgina frazeologik birliklar ham baholash attemkasiga ega. Shu sababli iboralarning semantic strukturasi ko'pincha konnotativ element ishtioq etadi. Bu element iboraning predmet-logik (mantiqiy) ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yaqdorlik yuklaydi.

O'g'uz lahjasi so'zlashuv uslubidagi iboralar ham huddi adabiy tildagi kabi ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik kasb etadi. Bunday ekspressiv bo'yoq asosan, badiiy va so'zlashuv uslubiga xos, ammo shevaning o'zi so'zlashuv uslubiga mansub bo'lgani uchun biz, o'g'uz lahjasi so'zlashuv uslubidagi ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega iboralarni ham tavsiflab o'tamiz.

Xususan, Ellikqa'la tumanida hozirgi kunda qorluq, qipchoqva o'g'uz lahjasi vakillari istiqomat qilib kelmoqdalar. Shulardan og'uz lahjasi vakillari tilida qo'llaniladigan "*Go'zzi kambog'olni otizidin*" iborasi salbiy ma'noda qo'llanilib ko'zi alang - jalang bo'layotgan odamga nisbatan ishlatilib, uning yana shu sheva tilida "*go'zzi olmo teradi*" "*Go'zzi chonoqinnon chiqodi*", "*go'zzi po'stinni yirtiqidin*" degan salbiy bo'yoqdorlikka ega variantlari ham uchraydi.

Shuningdek, "*Qon yolog'on qonjiqdin*" iborasi ham salbiy ma'noda qo'llaniladi. Bilamizki, hayvonot olamida qanjiq so'zi hayvonlarning urg'ochisiga nisbatan qo'pol ma'noda qo'llaniladi. Aynan o'sha urg'ochi hayvon go'sht bilan oziqlanganda uning og'iz atroflari go'shtning qoniga bo'yaladi. Aynan birovni urib, kaltaklab, og'zini qonga bejash ma'nosida qo'llaniladi.

"*Ita soyo barmidi (ita hayri deymidi)*" yoki "*itke sayasi tu'speydi*" qipchoq lahjasi vakillari tilida qo'llanilib, hech kimga nafi tegmaydigan odamga nisbatan qo'llaniladi. *Ita soyo barmin girip-chiqovarma* (Shu sheva og'zaki nutqidan) .

"*O'yinnan ko'pirni teyi yoxshi*" iborasi bir so'z bilan aytganda, daydi so'ziga teng keladi. Oyrim odomlora uzini o'yinnan ko'pirni teyam yoxshi bo'ladi. (Shu sheva og'zaki nutqidan)

"*Siqib suvingni ichadi*" iborasi qattiq sinovdan o'tkazadi, qiynaydi degan ma'noni bildiradi. Ammo qiynamoq ma'nosida qo'llash esa jismonan emas balki, ma'naviy qiynash nazarda tutiladi. Mn: *Bu ustozni darsinnan dym yoxshi o'qimcsang, do'g'ri siqib suvingni ichadi.* (Shu sheva og'zaki nutqidan).

"*Cholo eshitib, chotmoni yiqodi*" iborasi yo'q narsaga vahima soladigan odamga nisbatan ishlatilib, o'zbek adabiy tilidagi "*Pashshadan fil yasamoq*" iborasiga sinonim bo'la oladi. Cholo eshitip chotmonni yiqosanay uka (Shu sheva og'zaki nutqidan)

"*Uzi posmondo minni osmondo*" iborasi o'zbek tilidagi «Burni osmonga ko'tarilgan» iborasiga sinonim bo'ladi hamda kekkayib ketdi, kibrga berildi degan ma'noni ifoda etadi. (Bakposhshog'o qoro, uzi posmondo bo'som minni osmondo uzincha bo'lip)

"*Parvoyi palakda, ishtoni talakda*" iboralari bilan sinonim tarzida ham qo'llaniladi. Beg'am, beparvo, parvoyiga kelmaslik degan ma'nolarni bildiradi. Bu iboralarning o'zbek adabiy tilidagi «*Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi*», «*Parvoyi falak*» kabi sinonimlari mavjud. Jumladan: Bu kishi hamma voxt shunnin: qo'yloni qumo yuvarip o'tirodi (Qo'shko'pir shevasida).

Shuningdek, "*Yuzi eshakni derisidin qolin*" ayrim holatlarda "*Yuzi eshakni derisinnanam qoling*" tarzida qo'llaniluvchi ushbu ibora uyalmaslik, andisha qilmaslik ma'nolarini bildiradi. Uning o'zbek adabiy tilida "*Yuzi chidaydi*", "*Beti chidaydi*" singari sinonimlari mavjud. Masalan: Uzi qiz bolo bo'som yuzi eshakni derisinnin qolingakan, gapam ta'sir atmidi (Qo'shko'pir shevasida).

"*Eshaki tushoqino loyiq*" iborasi esa munosib, loyiq ma'nolarini ifoda etadi. Ushbu lug'aviy birlik, o'zbek adabiy tilidagi «*Uzukka ko'z qo'ygandek*» iborasiga teng, ammo ularning bir- biridan farqli jihati shundaki, ushbu iboraning o'zbek adabiy tilidagi varianti ijobiy, sheva varianti esa salbiy ma'nolarda qo'llaniladi: *Hamma voxt biloship yurido'n qiz, Nargizni, Masur olipti. Ay uzi vilo eshaki tushoqino loyiq adi.*

"*It o'lgan yer*" uzoq yer, masofasi uzoq degan ma'noni anglatadi.

"*It quyrig'in bulg'olog'on yer*" hamma joyga boraveradigan, chaqirsa ham chaqirma ham mehmonga boradigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

"*Qozonni suva tashap*" qayergadir mehmonga borish kerak bo'lsa darrov o'tlanib yo'lga chiqadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi.

“*Shag‘al maslik*” buning ma‘nosi kayf-u safo qilib yuruvchi insonga nisbatan ishlatiladi.

“*Itting qirg‘izinday*” bu odamlarga va narsalarga nisbatan ishlatilib, asosan ko‘p degan ma‘noni bildiradi.

“*Ikkisi bir suv*” bu iborada asosan bir xil harakterdagi odamlarga nisbatan ishlatiladi.

“*Jelang jurma*” tarzda qo‘llaniluvchi bu iborada yupqa kiyinib yuruvchi insonlarga nisbatan, qalinroq kiyinib yur ma‘nosida qo‘llaniladi.

“*Yatar qorina*” bu ibora ovqatlanishga nisbatan qo‘llaniladi. Kech bo‘lganda ko‘p ovqat yemaslik kerak, agar ko‘p ovqat yeyilsa hazm bo‘lmasligi mumkin. bu esa sog‘lik uchun zararli. Kech bo‘lganda kamroq ovqat yesa ham bo‘laveradi ma‘nosida qo‘llaniladi.

“*Vaqti xo‘sh*” bu iborada biron narsadan xursand bo‘lgan kayfiyati yaxshi bo‘lgan insonga nisbatan qo‘llaniladi.

“*Manga baribir*” iborasi adabiy tilimizda “menga baribir” ko‘rinishida qo‘llaniladi. Umuman aytganda, nutqda man va men hamda san va sen olmoshlari shevada qo‘llanilishi jihatdan farq qiladi.

“*It ita, it quyrig‘ina buyuradi*” iborasida o‘ziga buyurilgan ishni bajarmay, boshqa bir odamga buyurib ketadigan odamga nisbatan qo‘llaniladi. Iyagi kotarilib ketgan,

“*Cho‘pon ko‘paysa qo‘yin haram o‘lar*” bu iborada odamlar ko‘payib ish qilinmay qolsa yoki chala bajarilsa qo‘llaniladi.

“*Ismaloqda is bar desa*” bu iborada insonlarning qayergadir aytilsin aytilmasin boraveradigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladi.

So‘z bermek- 1. bir narsaga vada bermoq, ahd qilmoq. 2.

Janyny almak- 1. O‘ldirmoq. 2. Yurakka tushmoq⁵.

Iboralarning shakllanishida azaldan xalq tilining o‘rni va ro‘li kata. Aslida xalq tilida yaratilgan iboralar asta-sekin adabiy tilga badiiy asarlar orqali kirib borgan. Lekin ular orasida xalq adabiy tilga kirib bormagan va hozirgacha

⁵ Kiliçow Nazarbaý. Türkmen diliniň frazeölogiýasy. Daşkent. "Paytaxt exclusive" neşirýaty. 2021. 94-bet.

yaratilgan frazeologizmlarning izohli lugʻatidan joy olmaganlari ham bor. Shulardan biri sheva taʼsirida shakllangan iboralardir. Demak, frazeologizmlarning kinga qarata ishlatilayotgani, qaysi maʼnoda qoʻllanayotganiga jiddiy eʼtibor qaratish lozim. Bundan, albatta, ibora bilan yonma-yon qoʻllanayotgan soʻzlarning oʻrni va ahamiyati ham beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев. Ш . Ўзбек фразеологиэсининг баъзи масалалари Фил .фан док ...диссер. -Т. Б :362.
2. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Л., 1928. –Б:60-61.
3. Раҳматуллаев.Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол.фанлари номз...диссер. -М. 1952.Б: 55.
4. Турсунов. У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка. Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, выпуск 106, -Самарканд, 1961. Б:106.
5. Турсунов У .Мухтаров Ж Раҳматуллаев. Ш Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., Ўқитувчи 1975. Б:45.
6. Саломов .Ғ. Мақол ва идиомалар таржимаси. -Т., ЎзФА нашриёти 1961. . Б:79
7. Саломов. Ғ. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари) -Т., Фан, 1966.
8. Mamatov A.E. Problemy leksiko-frazeologicheskoy normy v sovremennom uzbekskom literaturnom yazyke. ADD. – Tashkent: 1991. – S. B: 40-47.
9. Mamatov A.E. Oʻzbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA Tashkent: 2000. – B:50.